

## G'ARBIY O'ZBEKISTONDA TERRIGEN YURA YOTQIZIQLARINING GAZLILIK ISTIQBOLLARI

*Bo'riev Sardor Sayfullaevich*

*QarMII "Foydaliqazilmalargeologiyasi  
varazvedkasi" kafedrasistajyor-o'qituvchisi*

*Telefon: +998914551011*

### **Annotatsiya**

Hozirgi kunda G'arbiy O'zbekiston tabiiy gaz qazib chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinni egallaydi, bu yerda neft va gaz uyumlari asosan yuqori yura davrining rif qurilmalari bilan bog'liq. Shu bilan bir qatorda quyi- o'rta yura va qadimgi davr yotqiziqlarini geologik tuzilishini o'rganish, bularga yangi neftgazga samarali obyektlarni izlash eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. So'ngi yillarda bu yotqiziqlarni neftgazga istiqboli ekanligiga dalolat beruvchi materiallar yig'ilib kelmoqda.

**Kalit so'zlar:** rif qurilmalari, tektonik bloklar, Komplekslar, terrigen yura yotqiziqlari.

### **Annotation**

Today, Western Uzbekistan is a leader in natural gas production, where oil and gas deposits are mainly associated with Upper Jurassic reefs. At the same time, one of the most urgent tasks is to study the geological structure of the Lower-Middle Jurassic and ancient deposits, including the search for new oil and gas facilities. In recent years, metrics have been accumulating that indicate that these fields are promising for oil and gas.

**Keywords :** reef structures, tectonic blocks, complexes, terrigenous Jurassic deposits.

Dunyo amaliyotida, foydali qazilmalar geologiyasini o'rganish tarixining barcha davrlarida ma'danlashuvning magmatizm bilan genetik bog'liqligini hamda qamrovchi tog' jinslarini ma'danlashuvning shakllanishi va joylashuvdagi rolini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, butun dunyoda foydali qazilma konlarini izlab topish, qolaversa, yuqoridagi masalalarni hal etishda keng qo'llaniladigan usullardan biri mineralogik-geokimyoviy tadqiqot usullari hisoblanadi. Endogen ma'danlashuvning magmatizm bilan aloqasiga oid masalalar ko'plab tadqiqotchilarning ishlarida ko'rib chiqilgan. H.M.Abdullayev tomonidan O'rta Osiyoning endogen nodir metalli ma'danlashuvining intruziyalar bilan genetik aloqasi asoslab berilgan. Keyingi yillarda olib borilgan petrologik, mineral-geokimyoviy va b. tadqiqotlar bilan H.M.Abdullayev, H.N.Boymuhamedov, I.X.Hamroboyev kabi

geolog olimlarning ko‘plab g‘oyalarining to‘g‘riligini tasdiqlaganlar.

Hozirgi kunda G‘arbiy O‘zbekiston tabiiy gaz qazib chiqarish bo‘yicha yetakchi o‘rinni egalaydi, bu yerda neft va gaz uyumlari asosan yuqori yura davrining rif qurilmalari bilan bog‘liq. Shu bilan bir qatorda quyi- o‘rta yura va qadimgi davr yotqiziqlarini geologik tuzilishini o‘rganish, bularga yangi neftgazga samarali obyektlarni izlash eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib kelmoqda. So‘ngi yillarda bu yotqiziqlarni neftgazga istiqboli ekanligiga dalolat beruvchi materiallar yig‘ilib kelmoqda. MOGT seysmostratigrafik vaqtinchalik qirqimi cho‘kindi qoplamaga kechki paleozoy, perm-trias, quyi-o‘rta yura nometamorflashgan yoki kuchsiz metamorflashgan cho‘kindi jinslari keng tarqalganligini tasdiqlaydi. Cho‘kindi qoplama stratigrafik diapazonining keng tarqalishi katta chuqurlikda neft va gaz konlarini izlash yuqori samaradorligini bildiradi , asosan quyi-o‘rta yura yotqiziqlarida geologorazvedka ishlarini keng miqyosda olib borish uchun asos bo‘ladi. So‘ngi ma’lumotlar bo‘yicha toyura yotqiziqlarining yuzasi bulokli tuzilish bilan xarakterlanadi. Chordjoy pog‘anasi hududida uchta– Shimoliy-sharqiy, markaziy va Janubiy-Sharqiy tektonik bloklar ajratilgan bo‘lib, bu o‘z novbatida quyi tartibli bloklar bilan murakkablashgan. Seysmogeologik qirqimda toyura va terrigen yura yotqiziqlarini tuzilmali rejada munosabati ko‘rinib turibdi, bu qirqim Chordjou pog‘anasi shimoliy-g‘arbdan janubiy-sharq bo‘yicha o‘tgan. G‘arbdan sharqqa qarib to yura yotqiziqlarini 2 km dan 5 km gacha tobora qalinlashib borgan. Shu yo‘nalishga terrigen yura yotqiziqlarining yotish chuqurligi ortib borgan. Bu qirqimda bir qancha qaytaruvchi replar T7, T8 va T81 ajratilgan bo‘lib, bu qaytaruvchi replar bu qavatni shartli ravishda uchta Gurud, Degibadam va Baysun svitalariga muvofiq seysmastratigrafik kompleksga ajratish imkoni beradi. Komplekslar qalinlik munosabati bo‘yicha turlicha. Quyi kompleks hamma joyda uchramaydi toyura hosilalarning ko‘tarilgan bloklariga qiyiqlashgan holda uchraydi, ikkinchi kompleksning qalinligi toyura hosilalarining yer yuzasiga chiqan joylariga o‘zgaradi. Uchinchi kompleksning qalinligi sezilarsiz darajada o‘zgaradi. Bu kompleks deyarli barcha joylarda uchraydi va Buxoro pog‘onasining shimoliy qismida uchraydi. Shimoldan janubga tomon yo‘nalish bo‘yicha terrigen yura yotqiziqlarining qalinligi noldan 3 km gacha o‘zgaradi. T.L. Babadjanov, L.G. Cherkashina, V.V. Rubolar tomonidan G‘arbiy O‘zbekiston terrigen yura yotqiziqlarini qalinlik sxemasi tuzilgan bo‘lib, karbonat to‘planish boshlanishigacha yura paleo havzasi rivojlangan rayon va oblastlarni jadal egelishi yoritilgan. Buxoro tektonik pog‘anasida (0-300 m) Chordjou pog‘anasining shimoliy –sharqiy qismida (50-400 m) bu yotqiziqlarning minimal qalinligi keltirilgan bo‘lib, Qarako‘l egekligi bundan mustasno , chunki bu yerda birinchi sesmostratigrafik kompleks – qirqimning quyi seksiyasi hisobiga qalinligi keskin ortadi (2000 m gacha). Chordjou pog‘anasining markaziy qismida bu yotqiziqlarning qalinligi 100 m dan 1000 m gacha o‘zgaradi. Kushob egekligi va

Uzunshor-Taykir tektonik buzilish zonasiga qalinlik oshib borgan bo‘lib, bu elementlar Chordjou pog‘anasini markaziy qismini shimoliy-g‘arbiy qismdan ajratib turadi. Beshkent egekligi tomoniga yo‘nalgan Pomuk ko‘tarilmasining sharqiy adiri bo‘yicha vaqtinchalik kirqimda terrigen yura yotqiziqlari oralig‘ida ko‘p sonli klinoformalar qiyid qilingan bo‘lib, yuqori qalinlikdagi ostki yuza qisimiga tutashib turgan nomuvofiqliklar zonasini hosil qilgan va Beshkent egekligining markaziy qismida barcha uchala stratigrafik kompleks uchraydi. G‘arbiy O‘zbekiston hududida quyi-o‘rta yura davrining mustahkam davomiylik egeklilari va katta ko‘lamdagi cho‘kindi to‘plamlari bilan xarakterlanadigan yirik oblastlar joylashgan. Yura terrigen yotqiziqlarining qalinligini tahlili shuni ko‘rsatadiki terrigen yura yotqiziqlari Chordjou pog‘anasi hududida jadal rivojlangan va toyura hosilalari osilgan bloklarida ham jadal rivojlangan. Yura paleo havzasi katta bo‘lmagan egekligi chizig‘i Qarako‘l egekligi, Uzunshor-Taykir tektonik zonasi orqali o‘tib keyin Amudaryo fleksura-uzilmali zonasiga tutashgan rayon orqali va Beshkent egekligining o‘q qisimidan o‘tgan. Hozirgi vaqtda o‘rta yura yotqiziqlarining regional gazlilik haqida umumiy tasavurlar mavjud. G‘arbiy O‘zbekistonda Terrigen yura yotqiziqlariga Akkum-Parsankul-Dayaxatin, Mubarek, Divalkak-Matanat konlariga razvedka qilingan va alohida quduqlarda jadal gaz namayonligi kuzatilgan. Bu yotqiziqalarda ochilgan barcha konlar va gaz namayonlari o‘rta yura davrining XVIII gorizont qumtoshlariga mansub bo‘lib XVIII gorizont bu konlar huddida yaxshi o‘rganilgan. Terrigen yura yotqiziqlarini ochgan Kimerek №1 quduqda uning maksimal qalinligishi 1400 m ni tashkil qilgan. Bu yotqiziqalarda ikkinchi va birinchi seysmostratigrafik komplekslari argillitlar, qumtoshlar, glinali oraliq qatlamchalar bilan xarakterlanib, gлина qatlamchalari uglevodorodlar uchun ishonchli qopqoq bo‘lishi mumkin. Chordjoy pog‘anasi hududida MOGT vaqtinchalik qirqimini oldingi seymostratigrafik tahlili natijasi bo‘yicha terrigen yura yotqiziqlarida beshta turdagi lokal obyektlar ajratilgan. Istiqboli lokal obyektlar va konlar yura paleo havzasining bort qisimlarida joylashgan, bo‘lib, o‘q qisimidan terrigen yura yotqiziqlar qalinligini keskin oshishi bo‘yicha chizig‘ o‘tgan. Terrigen yura yotqiziqlarining katta qalinlikdagi zonasiga bitum hosil qiluvchi qavat shakilanishi uchun quliy cho‘kindilar tarqalganligini taxmin qilish mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Хамрабаев И.Х., Ражабв Ф.Ш. Основк петрография // Укитувчи, 1964.
2. Егоров П.Ф., Волкова З.В. Отчет о результатах детальных поисков месторождений вольфрама в Ходжадыкском рудном поле и на участках Восточный Камангаран и Катаган. Отчет Гарданской ГПП за 1980-83 г.г.
3. Егоров П.Ф., Стрыгин В.П. Отчет о результатах детальных поисков в пределах Джамскогоскарнового поля (в западном окончании гор Каратюбе на участках

Кызылбаш, Аткамар, Сазаган) и поисково-оценочных работ на рудопроявлении Ходжадык. Отчет Джамской ГПП за 1976-80 г.г.

4. Bo'riev Sardor Sayfullaevich. QATLAMNI GIDRAVLIK YORISHDA QO'LLANILADIGAN ERITMALAR TURINI ASOSLASH . *Journal of New Century Innovations*, 11(1), 69–75. Retrieved from 2022 <http://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/1321>
5. Bo'riev , S. QATLAMNING GIDRAVLIK YORISH(QGY)NI TEXNOLOGIYASINI MUOMMALARI VA ULARNI TAHLILI. *Евразийский журнал академических исследований*, 2(11), 723–725. извлечено от2022 <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/5063>
6. Bo'riev, S. S. (2023). KON SHROITIDA QO'LLANILADIGAN QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH TEXNIKALARI VA TEXNOLOGIYALARINI QO'LLANILISH TAHLILI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 54–58. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1206>
7. Bo'riev S.S. KON SHAROITIDA QATLAM GIDRAVLIK YORILGANDAN KEYIN QUDUQDA YUVISH ISHLARININI AMALGA OSHIRISH BO'YICHA KO'RSATMALAR. 2023 *Educational Research in Universal Sciences*, 2(4), 582–585. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/2196>
8. Bo'riev , S. S. QATLAMNI GIDRAVLIK YORISH (QGY) NI AMALGA OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN AGREGATLARNING BOG'LANMASI. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(1), 278–280. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1160>